

Nosirjon Uluqov

**BITIRUV-MALAKAVIY
ISH**




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OIIY VA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOT KAFEDRASI**

Nosirjon Uluqov

BITIRUV-MALAKAVIY ISH

(uslubiy qo'llanma)



Toshkent – 2021

Qo‘llanmada bitiruv-malakaviy ishini yozish yuzasidan metodik tavsiya va ko`rsatmalar, ishning tuzilishi, hajmi, uni yozish qoidalari hamda havolalar berish, rasmiylashtirish tartiblari, foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

Muallif:

Nosirjon ULUQOV – filologiya fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

Taqrizchilar:

Sultonbek NORMAMATOV – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Shavkatjon ABDURAHMONOV – NamDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy qo‘llanma NamDU o‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil 10-oktyabrdagi yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bitiruv-malakaviy ish tushunchasi

Bitiruv-malakaviy ishni bajarish (bundan keyin malakaviy ish) – oliy o‘quv yurti bakalavriat bosqichida talabalarni o‘qitishning yakuniy bosqichidir.

Malakaviy ish mavzulari banki mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan buyurtmachilarining talablarini, shuningdek, zamonaviy fan-texnika, pedagogik texnologiyalar yutuqlarini e’tiborga olgan holda belgilanadi va oliy o‘quv yurti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. BMI mavzulari amaldagi Nizomga muvofiq uch yilda bir marotaba yangilab boriladi.

Filologiya, xususan, o‘zbek tili yo‘nalishi talabalari uchun bitiruv-malakaviy ish mavzulari filologik: tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda ona tili va adabiyot o‘qitish metodikalari yoki shu sohalarga oid ilmiytadqiqot yo‘nalishlarida bo‘lishi mumkin.

Talabaga bitiruv-malakaviy ish topshirig‘i, odatda, 3-kursni tugatgandan so‘ng yoki 4-kurs boshida beriladi. DTS bo‘yicha o‘quv rejasida bajarish uchun ajratilgan vaqt mobaynida 4-kursda bajariladi.

Malakaviy ishning maqsad va vazifalari:

- ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash hamda kengaytirish;
- tahsil davomida olingan nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiq etish;
- egallangan bilimlarni muayyan ilmiy, metodik, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo‘llash;
- talabalarning ilmiy iqtidorini shakllantirish, tanlangan yo‘nalish bo‘yicha mustaqil va ijodiy ishlashga o‘rgatish;
- talabalarda ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta’lim standartida ko‘rsatilgan fanlarga doir mavzularda ilmiy izlanishlar olib borish va ular yuzasidan ilmiy hamda amaliy xulosalar chiqarish, qarorlar qabul qilish malakasini shakllantirish.

Malakaviy ishning ilmiy-nazariy va metodik ahamiyati

Talaba malaka ishini yozish jarayonida quyidagi malaka va ko‘nikmalarni egallaydi hamda mustahkamlaydi:

1. Mutaxassislik fani bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi va amaliyatda qo‘llashni o‘rganadi.
2. Ma’lum bo‘lim, mavzuga doir ilmiy izlanishlar olib boradi.
3. Turli siyosiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, metodik, badiiy adabiyotlardan foydalanadi, ularni tahlil qiladi, ulardan iqtiboslar oladi. Shu tarzda ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan tanishadi.
4. Aynan bir masala va mavzuga doir turli fikr, qarash hamda mulohazalarni umumlashtiradi.
5. O‘z fikrlarini yozma tarzda ifodalash, ma’lum masala yuzasidan umumiylar berish malakasini egallaydi.
6. Talabada ilmiy tadqiqotlar olib borish ko‘nikma va malakalari rivojlanadi.

Malakaviy ishga rahbarlik

Malakaviy ishlarga oily o‘quv yurtining pirofessor va dotsentlari, ilmiy xodimlari yoki mutaxassislikka aloqador muassasalarning yuqori malakali xodimlari rahbar etib tayinlanadi hamda kafedra mudirining bildirishnomasiga ko‘ra oily o‘quv yurti rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Malakaviy ish rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- malakaviy ish uchun mavzular tanlaydi va tavsif etadi;
- malakaviy ish mavzulari yuzasidan topshiriqlar matnini tayyorlaydi;
- o‘zi rahbarlik qilayotgan talabalarga o‘quv yili boshida yozma topshiriqlar beradi;
- malakaviy ishni bajarish jarayonini rejalashtiradi va nazorat qiladi;
- mavzuga oid ilmiy, metodik adabiyotlar hamda manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam konsultatsiyalar o‘tkazadi;

- talaba bajargan malakaviy ishining sifati va mazmuniga javob beradi;
- mavzuning qaytarilishi va ko‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi;
- malakaviy ish yakunlangach, unga xulosa yozib kafedra muduriga topshiradi.

Ilmiy rahbar, shuningdek, malakaviy ishning ayrim bo‘limlari bo`ycha qo‘shimcha konsultantlarni tavsiy qilishi, taklif etishi va bu haqida kafedira mudiriga bildirishnomha yozishi mumkun.

Malakaviy ishga qo‘shimcha konsultantlar oily o`quv yurti professor-o`qtuvchilari yoki shu sohaga aloqador muassasalarning yuqori malakali xodimlari orasidan tanlanadi, ularga mehnat haqi BMI uchun ajratulgan umumiy soat hisobidan to‘lanadi.

Bitiruv-malakaviy ishni yozish bo‘yicha tavsiyalar Malakaviy ishni yozish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Malakaviy ishni yozish mavzu tanlashdan boshlanadi.
2. Ilmiy rahbardan mavzuga doir topshiriq va tavsiyalar olish.
3. Mavzuga oid adabiyotlarni topish, o`qib o‘rganish va konspektlar qilish, iqtiboslar olish.
4. Mavzuga oid internet materiallarini o‘rganish va to`plash.
5. Mavzuga doir ilmiy-nazariy fikrlarni asoslash uchun dalillar, misollar to`plash va ularni tahlil qilish.
6. Mavzu mohiyati va malakaviy ish maqsadidan kelib chiqib reja tuzish.
7. Ishni talablarga muvofiq rasmiylashtirish va ilmiy rahbarga ko`rib chiqish uchun taqdim etish.

Bitiruv-malakaviy ishning tuzilishi va mazmuni

Bitiruv-malakaviy ishini bajarishda mavzu bo‘yicha ko‘riladigan masalalarning tasdiqlangan rejaga mos kelishi va qo‘yilgan masalani to‘la yoritilishiga alohida e’tibor bermoq kerak.

Bitiruv-malakaviy ishning har bir bo‘limi o‘rganilayotgan mavzuga muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Bitiruv-malakaviy ishda ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning ilmiy ma’ruza va maqolalari, kurs ishlari va loyihalari (albatta, nomlari ko‘rsatilgan holda) tahliliy-qiyosiy ma’lumotlar sifatida aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Tushuntirish qismi bitiruv-malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va ilovalar, shuningdek, zaruriy qo‘sishimcha axborotlar, elektron shakldagi ma’lumotlar ilova etilishi mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishga tanlangan mavzuning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda elektron shakldagi taqdimot materiallari kiritilishi mumkin.

Bitiruv-malakaviy ish mavzusini to‘la yoritish ish bob va bo‘limlardan iborat bo‘lishi kerak. Ish tuzilishining optimal ko‘rinishi quyidagicha bo‘lishi mumkin: titul varag‘i, mundarija, kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar.

Titul varag‘i. Titul varag‘i ishning birinchi varag‘i hisoblanadi. Titul varag‘ida muallifning, ilmiy rahbarining yoki maslahatchining hamda kafedra mudirining familiyasi, ismi, ilmiy darajasi va unvoni ko‘rsatiladi, imzosi qo‘yiladi (2-ilova).

Mundarija. Bunda kirish, boblar va uning bo‘limlari sarlavhasi, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar kabi qismlar nomi ketma-ketlikda beriladi hamda sahifasi ko‘rsatiladi (3-ilova).

Kirish qismida mavzuning dolzarbliji, tavsifi va mohiyati, maqsad va vazifalari, tadqiq metodlari, ilmiy va amaliy ahamiyati, hajmi, tuzilishi kabi masalalar yoritiladi.

Ishning asosiy mazmuni. Bitiruv-malakaviy ishning bu qismi ikki yoki uch bobdan iborat bo‘lib, boblar o‘z ichida qism (fasl)larga bo‘linadi. Unda rejaga asoslangan izchilikda mavzuning mazmuni yoritiladi. Ishdagagi muammoning umumiyligi holda qo‘yilishi, o‘rganilish darajasi, nazariy va amaliy materiallarni umumlashtirish, xulosa va takliflar ishlab chiqish asosiy qismning tarkibidir.

Birinchi bobda bitiruv-malakaviy ishi mavzusining ilmiy-nazariy va amaliy yoki metodik tavsifi, mavzuga doir asosiy tushunchalar, ularning mazmuni va mohiyati, tahlili va talabaning ularga doir qarashlari, mulohazasi yoritiladi.

Bu bobda mavzuga tegishli qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va ularning mazmun-mohiyati hamda hayotga tadbiq etilishiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Ikkinci bobda tanlangan mavzu bo‘yicha ayni paytdagi mavjud muammolar, ularni hal etilishi bo‘yicha hukumat, vazirliklar, idoralar, tashkilot va muassasalar yoki korxonalar doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yutuqlar, kamchiliklar batafsil yoritiladi. Shu bilan birga ishda zarur bo‘lsa boshqa tarmoq yoki xorijiy davlatlar tizimi, boshqaruv organlari, xalq xo‘jaligi tarmoqlari bilan qiyosiy tahlil amalga oshirilishi mumkin. Tahlil natijasida muammoni hal etishning ichki imkoniyatlarini ochish va unga ijobjiy hamda salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash zarur.

Uchinchi bobda tanlangan mavzu bo‘yicha muammolarni hal etish yo‘llari bayon qilinadi. Bu borada talaba tomonidan o‘rganilgan ilmiy va amaliy fikrlar yoki uning o‘zi taklif etgan tavsiyalar aks ettiriladi.

Taklif etilgan tavsiyalarni tegishli tashkilot, muassasa, korxonada qo‘llash natijasida qanday ijtimoiy yoki ilmiy, amaliy yoki metodik natija olinishi yoritiladi.

Xulosa qismida bajarilgan malakaviy ish xulosalari aniq, izchil bayon qilinadi. Xulosada bitiruv-malakaviy ishi natijalari, tavsiya va takliflar yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar. Bu bo‘limda bitiruv-malakaviy ishning bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Bu ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda siyosiy-ijtimoiy adabiyotlar: O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, ikkinchi qismda esa ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlar: monografiyalar, dissertasiyalar, avtoreferatlar, ilmiy risola va maqolalar ro‘yxati alifbo tartibida beriladi.

Ilovalar. Bu bo‘limda bitiruv-malakaviy ishi mavzusiga doir ma’lumotnomalar, jadvallar, chizmalar, shuningdek, mavzuga doir slaydlar hamda turli ilovalar beriladi.

Malakaviy ishni rasmiylashtirish qoidalari va uni bajarish bo‘yicha ko`rsatmalar

1. Malakaviy ish kompyuterda Times New Roman garniturasida 1,5 intervalda, 14 shriftda, chap tomondan 3 sm, o‘ng tomondan 1 sm, yuqoridan 2,5 sm, quyidan 2,5 sm qoldirish asosida rasmiylashtiriladi.
2. Malakaviy ishning umumiy hajmi 60-70 bet bo‘ladi.
3. Malakaviy ish belgilangan talablar asosida rasmiylashtiriladi.
4. Unda mavzuga doir so‘nggi yangiliklar, ilmiy, ilmiy-metodik qarashlar, innovasiyalar, pedagogik texnologiyalar, shaxsiy tajribalar, fikr-mulohazalar o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.
5. Titul varog‘ida quyidagilar o‘z ifodasini topishi shart:
 - universitet va kafedraning to‘liq nomi;
 - talabaning to‘liq familiya va ismi;
 - malakaviy ish mavzusi;
 - ilmiy rahbarning familiya va ismi, lavozimi;
 - ish yozilgan yil. (Qarang. 1-ilova)
6. Ish rejasi kirish, asosiy va xulosa kabi qismlardan iborat bo`ladi. Bu 2-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi. (Qarang. 2-ilova)
7. Talabaning ilmiy, metodik adabiyotlardan foydalanishi, ularni mutolaa qilganligi hamda amaliyotga tatbiq etish malakasi talabga javob berishi lozim.
8. Talabadan mavzuga mos reja tuzish va fikrlarini unga muvofiq izchil bayon qilish talab qilinadi.
9. Ish ilmiy, mantiqiy-uslubiy, ilmiy-metodik hamda imloviy jihatdan talabga javob berishi shart.
10. Malakaviy ish mavzusi metodikaga oid bo‘lsa, ishda ta’lim muammolari va ularni hal etish yo‘llari, ma’lum bo‘lim yoki mavzularni o‘qitish bo‘yicha tajribalar, tavsiyalar, shuningdek, o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalari bayon etilishi maqsadga muvofiq.

11. Adabiyotlardan olingan havolalarning manbasi: muallifi, kitob, asar yoki maqola nomi, chop etilgan sanasi, nashriyoti va sahifasi talablarga muvofiq ko‘rsatilishi kerak.
12. Ish sahifalari arab raqamlari bilan tartiblanadi.
13. Malakaviy ishning titul varog‘idan so‘ng alohida sahifalarda mundarija beriladi.
14. Kirish qismida mavzuning dolzarbliji, maqsad va vazifalari; asosiy qismda mavzuning o‘rganish doirasi, tahlillar, ilmiy, ilmiy metodik mulohazalar beriladi, xulosa qismida esa mavzuga doir ilmiy, ilmiy-metodik qarashlar, natijalar umumlashtiriladi.
15. Malakaviy ish yakunida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Mualliflar familiy va ismi, adabiyotlar nomi alifbo asosida beriladi (arab raqamlari bilan tartiblanadi).
16. Havola muallifi, manbasi (adabiyot nomi), beti, nashriyot nomi satr ostida (snoskada) ko‘rsatiladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O'ZBEK TILI YO'NALISHI

4- KURS 401-GURUH TALABASI

NISHONOVA NOZIMA KARIMJONOVNANING

BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

**“AVESTO” VA HADISLARDA NUTQ
MADANIYATI MASALALARI”**

mavzuidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

N. Uluqov, filologiya fanlari doktori,
professor

NAMANGAN – 2021

Mundarija

Kirish.....	4
1-bob. Nutq madaniyati va uning qadimiylar manbalari	
1.1. Nutq madaniyat tushunchasi.....	9
1.2. Nutqiy madaniyatimiz sarchashmalari.....	17
2-bob. “Avesto”da nutq madaniyati masalalari	
2.1. "Avesto" – Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy va qomusiy asari.....	24
2.2. “Avesto” va so‘zlash madaniyati.....	29
3-bob. Nutq madaniyati va nutq odobi haqidagi qarashlar	
3.1.Qur’oni karim va nutq madaniyati.....	34
3.2. Nutq odobi, nutq madaniyati haqidagi hadislar va diniy ko‘rsatmalar.....	42
{ulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar.....	53

Foydalanilgan adabiyotlarga havola berish va ishda ularni ko‘rsatish namunalari

Bitiruv-malakaviy ish ilmiy-ijodiy xarakterga ega bo‘lib, unda talaba tanlab olingan mavzu yuzasidan o‘z ilmiy va amaliy kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan fikr-mulohaza va xulosalarini bayon etishi lozim. Mavzuga doir fikrlarni biror maqola yoki ilmiy asardan aynan ko‘chirib olish mumkin emas. Malakaviy ishning mazmuni uchun talaba asosiy javobgar bo‘lib, bordi-yu, unda ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, ish bekor qilinadi. Albatta, bundan mavzuga doir boshqa tadqiqotlardan mutlaqo foydalanish mumkin emas degan fikr kelib chiqmaydi. Faqat malakaviy ishda foydalanilgan dalil, fikr va mulohazalarning kimniki ekanligini, qaysi manbadan olinganligini yashirmay, aniq ko‘rsatish lozim.

Ilmiy ishda boshqalar fikridan foydalanishning ikki usuli bor: **havola (snoska)** va **iqtibos (sitata)**. Agar o‘zganing fikriga ishora qilinsa yoki fikrning o‘zi keltirilmay, uning mazmuni berilsa **havola**, agar ma’lum fikrning o‘zi aynan keltirilsa **iqtibos** deyiladi.

Iqtibos va havolalar manba qaysi yozuvda nashr etilgan bo‘lsa, o‘sha yozuvda ko‘rsatiladi.

Havola qilish va iqtibos keltirish qoidalari quyidagicha:

Agar malakaviy ishning biror sahifasida shu mavzuga doir tadqiqotlar tilga olinsa, ular sahifa ostida havola (snoska)da ko‘rsatib o‘tiladi:

Masalan: “*Alpomish*” dostoni esa e’zbek dostonchiligining shoh asari hisoblanadi. Bu doston – o‘zbek xalqining butun dunyo xalqlari madaniy xazinasiga qo‘shtigan munosib hissasidir. Xalq baxshilarining mahorat darajasi ko‘pincha “*Alpomish*” xalqimizning faxri, uni ijro etishiga qarab belgilangan. Shuning uchun “*Alpomish*” xalqimizning faxri, uni ijro etish baxshilarga mahorat mezonidir.¹

Agar biror asardan iqtibos keltirilsa, iqtibos qo‘shtirnoq ichiga olinadi va raqamlanib, manbasi sahifa ostida xuddi havoladagidek

¹ Мадаев О. Алпомиш. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б-15. (Agar keyingi sahifalarda shu manbaga ishora yoki murojaat qilinadigan bo‘lsa, muallif va asar nomi hamda sahifa raqamini ko‘rsatish kifoya: Мадаев О. Алпомиш, 5-бет.)

ko‘rsatiladi: **Masalan:** *Alliteratsiyaning xususiyati lug‘atlarda quyidagicha izohlanadi: "Alliteratsiya ko‘zga unchalik ham yaqqol tashlanmasligi mumkin, biroq ular yaqqol eshitiladi":*²

Iqtibos va havolalar manbasini ko‘rsatishning boshqacha, ancha qulay usuli ham bor. Bu usulda dastlab alifbo tartibida mukammal adabiyotlar ro‘yxati tuziladi:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Муқаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан, 2000. – 16-т.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov H. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
3. Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
4. Бафоев. Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Тошкент, 2008.
6. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
8. Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – № 5. – Б.11.

Bu usulda fikr, parcha yoki havolaning manbasini keltirish uchun uning muallifi, asar nomi, nashr etilgan joyi, yil va sahifani har safar ham batafsil keltiraverish shart emas. O‘sha asarning adabiyotlar ro‘yxatidagi tartib raqami va sahifasini ko‘rsatish kifoya. Buning ustiga ishora sahifa ostida emas, bevosita o‘sha fikr, iqtibos yoki parchadan so‘ng qavs ichida beriladi. **Masalan,** *So‘z semantik jihatdan predmet, hodisa, harakat, belgi va shu kabilarning nomini bildiradigan grammatik jihatdan shakllangan, bir tilda so‘zlashuvchi kishilar jamoasi uchun bir xilda tushuniladigan nutq birligidir.* [3, 63]

² Куронов Д., Мамажонов Ж., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – В. 27. (Agar keyingi sahifalarda shu lug‘atga ishora yoki murojaat qilinadigan bo‘lsa, muallif va asar nomi hamda sahifa raqamini ko‘rsatish kifoya: Куронов Д., Мамажонов Ж., Шералиева М. Ўша асар, 5-бет.)

Qavs ichidagi 3 adabiyotlar ro‘yxatidagi 3-adabiyotni, 63 esa uning sahifasini anglatadi. Demak, [3, 63] Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - Б. 63. deb tushuniladi. Bu yuqoridagi adabiyotlar ro‘yxatiga muvofiq keladi.

Iqtibos va havolalar manbasini ko‘rsatishda quyidagi namunalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Kitoblar va ilmiy to‘plamlar:

1.1. Darslik, o`quv qo`llanmalari, monografiyalar, ilmiy maqolalar to`plamlari:

a) bir, ikki yoki uch muallifli adabiyotlar:

– Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Toshkent: Ta’lim, 2009. – 160-b.

– Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 339-б.

b) to`rt muallifli adabiyotlarga havola:

– Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология / Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 162-б.

1.2. Ko`p jildlik kitoblar, lug`atlar:

– Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 1-ж. – 589 б.

2. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:

– Ақбаров З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2007. – 23-б.

3. Ilmiy ishlar to`plamariga havolalar:

a) butun manbara:

– Тилшуносликнинг долзарб масалалари: ЎзМУ (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: Академнашр, 2010. – 200-б.

b) maqolaga havola:

– Akbarova Z. Murojaat shaklining tasnifi asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2006. – №3. – B.73-74.

Bitiruv-malakaviy ishni baholash mezonlari

Maksimal ball 100 ball
O'tish bali 55 ball

Ballar taqsimoti

1. Malakaviy ishni bajarish jarayonidagi talabaning faollik darajasi chun – 10 ball
2. Malakaviy ishning talablar asosida rasmiylashtirilishiga – 10 ball
3. Ishning uslubi, fikrlar izchilligi, imloviy, ishoraviy, uslubiy savodxonlik uchun – 20 ball
4. Ishning mazmuni, mavzuning yoritilish darajasi, ilmiyligi, adabiyotlardan foydalanish holati uchun – 30 ball
4. Fikrlarning amaliy jihatdan dalillanishi va mukammal xulosalanganligi uchun – 10 ball
5. Malakaviy ish himoyasi uchun – 20 ball

Malakaviy ish himoyasi bo'yicha bayonnomma tuzilib, baholash natijalari qaydnomaga rasmiylashtiriladi. (Qarang. 3-ilova).

Malakaviy ish, bayonnomma kafedraga topshiriladi.

BMI mavzulari majmui

I. Tilshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha mavzular

1. Abdulla Qahhor asarlari lingvopoetikasi.
2. Ayollar nutqida paralingvistik vositalar.
3. “Alpomish” dostonidagi atoqli otlarning lisoniy xususiyatlari.
4. “Alpomish” dostonida yordamchi so‘zlarning qo‘llanishi va lingvostilistik xususiyatlari.
5. Alisher Navoiy she’riyatiga xos murojaat shakllarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari.
6. Badiiy nutqda ta’sirchanlikni ifodalovchi usul va vositalar.
7. Barqaror juft so‘zlarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari.
8. Boborahim Mashrab she’rlarining lingvopoetik xususiyatlari.
9. Bolalar folklorida zoonimlar.
10. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarining lingvopoetik xususiyatlari.
11. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning paradigmatic munosabati.
12. Erkin Vohidov she’rlarida sintaktik sinonimlar.
13. Fe’lning semantik xususiyatlari.
14. Fonetik uslubiyatning badiiy matn yaratishdagi o‘rni.
15. Gap bo‘laklarining ma’nolar sistemasidagi o‘rni.
16. Gapning modal aspekti.
17. Grammatik uslubiyatning o‘ziga xos xususiyatlari.
18. Go‘zallik tushunchasini ifodalovchi leksemalarning lisoniy xususiyatlari.
19. Hisob so‘zlar guruhining lisoniy takomili va xususiyatlari.
20. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifatlarning yasalish xususiyatlari.
21. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sintaktik sinonimiya.
22. Ilova qurilmalar va ularning semantik-grammatik xususiyatlari.
23. Iqbol Mirzo she’riyati lingvopoetikasi.
24. Kelishik va ko‘makchilar sinonimiysi pragmatikasi.
25. Konnotativ ma’noni yuzaga chiqaruvchi vositalar (E.Vohidov she’riyati misolida).
26. Lingvistik tadqiqot metodlari.
27. Lisoniy birliklarni modellashtirish.
28. Leksema variantlarining badiiy nutq yaratishdagi o‘rni.
29. Leksemalarning paradigmatic munosabati.
30. Matnning pragmatik xususiyatlari.

31. Maqol va hikmatli so‘zlarning lisoniy xususiyatlari.
32. “Mahbub-ul qulub” asarining lisoniy xususiyatlari.
33. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida ekspressiv-emotsionallikning ifodalaniishi.
34. Muloqotda murojaat shakllarining o‘rni.
35. Navoiy asarlari tilining grammatik xususiyatlari.
36. Namangan viloyati toponimiyasining struktural tasnifi va tahlili.
37. Namangan shevalarining leksik va grammatik xususiyatlari.
38. Notiqlik sa’natining asosiy ko‘rinishlari va xususiyatlari.
39. Nutq – tafakkurni o‘stirishda muhim vosita.
40. Ot va fe’l formalarining badiiy nutqda qo‘llanishi.
41. Oybek she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari.
42. Poetik nutqni shakllantiruvchi ayrim vositalar.
43. Qarindoshlik nomlarining etimologik xususiyatlari.
44. Qo‘shma gaplar tarkibida qo‘llanuvchi sintaktik-stilistik figuralar va ularning funksiyasi.
45. Qo‘shma gaplar sinonimiysi.
46. Rasmiy muomala madaniyati.
47. Said Ahmad hajviy asarlarining til xususiyatlari.
48. Sintaktik-stilistik figuralar tavsifi va tasnifi.
49. Sodda gaplarning semantik - sintaktik xususiyatlari.
50. So‘zlarning birikish usullari (tarixiy matnlar asosida).
51. So‘zlashuv nutqi xususiyatlari.
52. So‘z ma’nosi va uning valentligi.
53. So‘z yasalish aspektlari.
54. “Temurnoma”da qo‘llangan belgi bildiruvchi so‘zlar chastotasi va tahlili.
55. “Temur tuzuklari” asarida harbiy terminlar.
56. Tilning belgilik tabiatni.
57. Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati.
58. Tohir Malikning “Shaytanat” romanidagi holat fe’llarining leksik xususiyatlari.
59. Tohir Malikning “Shaytanat” romanidagi onomastic birliklarning leksik-semantik xususiyatlari.
60. Umar Hayyom ruboiylarida fe’lning funksional shakllarining qo‘llanishi.

61. Undalmali gaplar presuppozitsiyasi.
62. Undov va taqlid so‘zlarning leksik-grammatik xususiyatlari.
63. Yusuf Xos Hojibning ”Qutadg‘u bilik” asarida maqol va hikmatli so‘zlarning qo‘llanishi.
64. O‘zbek adabiy tilida fonetik hodisalar (A. Oripov she’riyati asosida).
65. O‘zbek badiiy nutqida okkazionalizmlar.
66. O‘zbek badiiy nutqida ekspressivlik.
67. O‘zbek badiiy uslubining sintaktik xususiyatlari (Tog‘ay Murod asarlari asosida).
68. O‘zbek grafikasining tarixiy taraqqiyoti va takomili.
69. O‘zbek tilida darajalanish.
70. O‘zbek tilida fe’llarning valentlik xususiyatlari.
71. O‘zbek tilida morfologik fakultativlik.
72. O‘zbek tilida sinxron so‘z yasalishi.
73. O‘zbek tilida leksik-semantik munosabatlar va ularning ifodalanishi.
74. O‘zbek tilidagi marosim nomlarining o‘ziga xos xususiyatlari.
75. O‘zbek tilida hol ergash gapli qo‘shma gaplar.
76. O‘zbek tilida leksik birliklarning sintagmatik munosabati (S. Ahmad asarlari asosida).
77. O‘zbek tilining paralingvistik xususiyatlari.
78. O‘zbek tili teonimlarining lisoniy xususiyatlari.
79. O‘zbek tilida nutq fe’llari va ularning semantik xususiyatlari.
80. O‘zbek tilida shaxs nomlari.
81. O‘zbek adabiy tilining publitsistik uslubi.
82. O‘zbek tilida perifrazalar (“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi misolida).
83. O‘zbek tilidagi tabiat hodisalarini bildiruvchi leksemalarning ma’noviy tahlili.
84. O‘zbek tili grammatik qurilishining tarixiy taraqqiyoti.
85. O‘zbek tilida gap bo‘laklarining noamaliy mavqeい.
86. O‘zbek tilining harbiy terminologiyasi.
87. O‘zbek she’riy nutqida pleonazm.
88. O‘zbek she’riy nutqida metafora.
89. O‘zbek she’riyatida sinonim affikslar va ularning qo‘llanishi.
90. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida takror va uning lisoniy xususiyatlari.
91. G‘afur G‘ulom she’riyatining ayrim lingvopoetik xususiyatlari.
92. “Shum bola” qissasining lingvopoetik xususiyatlari.

93. Chust tumani antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari.
94. XI-XII asr yozma yodgorliklarida olmoshlar.

II. Adabiyotshunoslik bo‘yicha mavzular

1. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida komil inson targ‘ibi.
2. Abdurauf Fitrat – adabiyotshunos olim.
3. Alisher Navoiy aforizmlari.
4. Alisher Navoiy marsiyalari va ularning badiiy xususiyatlari.
5. Alisher Navoiyning “Nazm ul - javohir” asaridagi ruboiylar tahlili.
6. Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
7. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni poetikasi.
8. Alisher Navoiyning “Hayrat ul - abror” dostonining badiiy xususiyatlari.
9. Atoyi she’riyatida tashbeh sa’nati.
10. Abdulla Qahhor hikoyalarda inson ruhiyati va qalb iztiroblari tasviri.
11. Asqar Qosimov – antik adabiyot tarjimoni.
12. Abdulla Qodiriyning salbiy qahramon yaratish mahorati (“Mehrobdan chayon” romani asosida).
13. Badiiy nutqda kolorit ifodalovchi vositalar.
14. Baxtiyor Nazarov – munaqqid va adabiyotshunos.
15. Boborahim Mashrab she’riyatida tamsil san’ati.
16. Bobir g‘azaliyoti poetikasi.
17. Erkin A’zamning obraz yaratish mahorati.
18. Erkin Vohidov – dostonavis.
19. Erkin Vohidov publitsistikasi.
20. Hamid Olimjon masnaviyatlari.
21. Hamzaning ma’rifat sohasidagi xizmatlari.
22. Hozirgi o‘zbek she’riyatida ritm va uning ifodasi.
23. Ibrohim G‘ofurov – adabiyotshunos olim.
24. Isoqjon Nishonov – dedektiv romanlar ustasi.
25. Jaloliddin Rumiy hikoyatlarining mavzu ko‘lami va badiiy xususiyatlari.
26. “Kuntug‘mish” dostonida milliy qadriyatlarning ulug‘lanishi.
27. “Layli va Majnun” dostoni badiiyati.

28. Mashrab lirikasida talmeh san'ati.
